

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2025  
3-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

yo'qotishi 322°C ga tog'ri kelmoqda va maksimal massa yo'qotish tezligi uchun harorat 435°C ni tashkil qiladi. 2-jadvalda biz PP/Gr aralashmasining massa kamayish foizini taqqoslashimiz mumkin.

2-jadval

Nomlanishi	Massa yo'qotish boshlanish harorati (°C)	Massa yo'qotish % (300°C) da	Massa yo'qotish % (420°C) da
PP/Gr (100/0)	260	-13	-94
PP/Gr (90/10)	240	-14	-96
PP/Gr (80/20)	280	-4	-88
PP/Gr (70/30)	265	-10	-92

Ko'rinib turibdiki, polipropilenga 20% grafit qo'shganimizda uning issiqlikka chidamliligi oshyapti yani 420°C da eng kam (88%) massa yo'qotyapti. Grafitning massa ulushuni 20% dan oshirsak, ya'ni 30% va undan yuqori miqdorda qo'shsak, massa yo'qotish foizi oshib ketyapti.

**Xulosa.** Demak, J-320 markali polipropilen tarkibida grafit kukunlarini to'ldiruvchi sifatida qo'shilishi aralashmaning termik xossalarning yaxshilanib, olingan namunalar dastlabki obyektlarga nisbatan ma'lum haroratgacha bardoshliroq bo'lishni ta'minlaydi va aytish mumkinki, ma'lum sharoitlarda aralashma tarkibidagi to'ldiruvchi miqdorining oshishi namuna (PP/Gr aralashmasi) ning issiqlik xossalarning oshishi (yaxshilanishi) ga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Н.Н.Комова, Г.Е.Заиков, С.Н.Русанова. Влияние температурных режимов на деформационные характеристики микомпозиций полипропилен – полиэтилен низкой плотности. 2012. с. 110-112.
2. A.A.Xolmuminov. "Polimerlar fizikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent. "Universitet". 2015.
3. Polymer Blends. Ed. by D.R. Paul, C.B.Bucknall. New York, Chichester, Weinheim, Brisbane, Singapore, Toronto, Wiley. 2000. p. 1189.

---

### BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

---

**Sitora Xabilova,**

*Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

#### **Annotation**

*In this article, theoretical information is provided for the development of the issues of professional and personal qualities of future teachers of higher educational institutions, the tasks of self-development of educators and the development of personal quality potential. Recommendations are given for the development of professional and personal skills of young educators, the pedagogue should have an experienced qualification, respect for his profession, knowledge, skills, that is, BKM.*

*Also, processes such as improving the pedagogical process of developing professional and personal qualities in students, improving the effectiveness of the pedagogical process, increasing one's work activity, mastering positive qualities, etc.*

**Key words:** *technology, student, process, professional quality, personal quality, knowledge, skill, ability, teacher*

**Аннотация**

*В данной статье дана теоретическая информация для разработки вопросов профессиональных и личностных качеств будущих преподавателей высших учебных заведений, задач саморазвития педагогов и развития личностного качественного потенциала. Даны рекомендации по развитию профессиональных и личностных качеств молодых педагогов, педагог должен иметь опытную квалификацию, уважение к своей профессии, знаниям, умениям, то есть БКМ.*

*Также происходят такие процессы, как совершенствование педагогического процесса развития профессиональных и личностных качеств учащихся, повышение эффективности педагогического процесса, повышение трудовой активности, освоение положительных качеств и т.д.*

**Ключевые слова:** технология, студент, процесс, профессиональное качество, личностное качество, знания, умение, способности, преподаватель.

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish masalalarini texnologiyalar yordamida yanada takomillashtirish, tarbiyachilarning o'z-o'zini rivojlantirish vazifalari hamda shaxsiy sifat salohiyatini rivojlantirish uchun nazariy ma'lumotlar berilgan. Yosh tarbiyachilarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogning tajribali malakaga ega bo'lishi o'z kasbiga nisbatan hurmat, bilim, ko'nikma malaka yani BKM ni rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.*

*Shuningdek talabalarda kasbiy va shaxsiy sifatlarni qay darajada rivojlantirish pedagogik jarayonini takomillashtirish, pedagogik jarayonini samaradorligini oshirish, o'zining ishchanlik faolligini oshirish, ijobiy sifatlarni o'zlashtirish, kabi jarayonlar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** texnologiya, talaba, jarayon, kasbiy sifat, shaxsiy sifat, bilim, ko'nikma malaka, qobiliyat, tarbiyachi

**Kirish (Introduction).** Fikrimizcha Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda oliy ta'lim o'qituvchisi va talabalar o'rtasida shaxsiy xususiyatlar katta rol o'ynaydi.

Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarining vazifasi talabalarni ertangi kunga bilimli kadr, kasbiy-pedagogik sifatlarni shakllantirish, ularni kasbiy tayyorlash, zamonaviy sharoitda bo'lajak tarbiyachilarga pedagogika - psixologiya fanlarini chuqur o'rgatish, pedagog kadrlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan ilg'or yutuqlar, umuminsoniy g'oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarkib toptirish, tarbiyachi, hamda yoshlar murabbiysi sifatida pedagogik jarayonlarni to'g'ri tashkil etish malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan. Pedagogika universitetlarida pedagoglarning faoliyati kelajakdagi tarbiyachi va pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining samarali rivojlanish muhim xisoblanadi. Oliy ta'lim pedagoglari o'quv fanlari o'rtasidagi munosabatlardan faol foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishi va qadriyatlar, maqsadlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish asosida ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshiridilar. Ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish bugungi kunda ta'lim texnologiyalarining o'rni xam beqiyosdir.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Xorijiy tajribalarni integratsiyalash orqali talabalarining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligini takomillashtirish ta'lim sohasidagi tadqiqotlarga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Adabiyotlar xalqaro ta'sir qilish talabalarining ta'lim natijalari va kasbiy kompetensiyalarini qanday oshirishi mumkinligini tushunish uchun ko'p qirrali yondashuvni ochib beradi.

Ilmiy adabiyotlarda "metodika" va "texnologiya" tushunchalari ko'pincha sinonim sifatida ko'rib chiqilganligi sababli, biz ushbu masala bo'yicha tadqiqotimiz doirasida ko'rib chiqdik.

Texnologiya - muayyan shartlar asosida ishlab chiqilgan va berilgan natijaga qaratilgan [1,86 b] Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini yangicha texnologiyalar yo'nalishda kasbiy yetuklik darajasini shakllantirish o'z o'zini baholash ko'nikmasini ham bilishlari zarur,

Talabalarining aksariyatida kasbiy yetuklik darajasi past ekanligini, haqida N.N Azizxodjayev[2,115 b] tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, har bir yosh tarbiyachi o'z kasbiga birinchi qadam qo'yganda .yangi jamoaga qo'shilganida ma'lum qiyinchiliklarini boshdan kechirishi, tarbiyachining kasbiy yetuklikka erishishi boshqa kasb egasiga qaraganda murakkabligi uni muvaqqiyatli shakllanishi va rivojlanishi uchun unga ta'lim muassasasi yoki ta'lim

jarayoni olingan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarning yetarli emasligi G.N.Ibragimovning ilmiy tatqiqotlarida o'raganilgan [3, 98]

Pedagoglarning ega bo'lishlari kerak bo'lgan shaxsiy xislatlariga bir nechta misol keltirish mumkin: bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish; amaliy-psixologik aql-farosatlilik; mehnatsevarlik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik; kamtarlik; odamiylik, dilkashlik; uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish; o'z bilimlarini oshirishga intilish. Bu yuqorida keltirib o'tilgan xislatlarning xar biri ta'lim berishda juda muxim omillardan hisoblanadi. Qolaversa, zamonaviy tarbiyachi shaxsiy xislatlardan tashqari kasbiga oid bilim ko'nikma, malaka xamda turli qobiliyatlarga ham ega bo'lishligi o'quvchilarning bilim olishi, ma'naviy kamolotga erishishida ko'maklashadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Xorij manbalarida kasbiy sifatlar muammosini tadqiq qilishga nisbatan ikkita yo'nalish ko'rsatib o'tilgan: birinchisi kasbiy rivojlanish, shaxsning kamol topishiga qaratilgan ikkinchisi kasbiy shakillanishning ijtimoiy tomonlari va omillariga qaratilgan. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish ta'lim texnologiyasining ahamiyatli tomonlari bo'lib, bu ishtirokchilar uchun qulay sharoitlarni ta'minlash va cheklovlarni hisobga olgan holda muayyan natijaga erishish uchun uni rejalashtirish, tashkil etish, yo'naltirish va sozlash bo'yicha o'quv jarayoni subyektlarining birgalikdagi faoliyati tizimi. Mavjud ta'lim texnologiyalarining keng doirasi ularni tasniflashni taklif qiladi. Garchi bugungi kunda ta'lim texnologiyalarining yagona, aniq belgilangan tasnifi mavjud bo'lmasada, bir qator tadqiqotchilarning e'tiborini ikkita texnologiya guruhi jalb qilmoqda: an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari.

Jumladan, M.Argayl kasbiy sifatlar va individning kasbiy shakillanishi orasidagi bog'liqlik mavjudligi haqida so'z yuritgan edi. Shu bilan birga, uni o'zida quydagilarni mujassamlashtirilgan murakkab jarayon ekanligini takidlagan: kasbiy treninglar, faoliyatini amalga oshirishga nisbatan qo'yiladigan talablar va standartlarni o'zlashtirish, mehnat jamosi doirasida xulq-atvor meyyorlarini tushunish [4, 336]

Ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish orqali kasbiy va shaxsiy tayyorgarligini rivojlantirish zarur ahamiyatga ega ekanligi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Aynan mehnat jamosidagi boshqa shaxslar bilan o'zaro hamkorlik shaxsga o'zi egallab turgan mutaxassislikni aniq standartlarini o'zlashtirish imkoni beradi. Kasbiy meyorlarga amal qilish individga kasbiy sifatlarini o'zida shakillantirishga zamin hozirlaydi imkoniyatlar yaratadi.

Bu yuqorida keltirib o'tilgan xislatlarning xar biri ta'lim berishda juda muxim omillardan hisoblanadi. Qolaversa, zamonaviy bugungi kun tarbiyachisi shaxsiy xislatlardan tashqari kasbiga oid bilim ko'nikma, malaka xamda turli qobiliyatlarga ham ega bo'lishligi bo'lajak tarbiyachilarning bilim olishi, ma'naviy kamolotga erishishlar uchun xizmat qiladi.

19-asr oxirida. P.F. Kapterev ta'kidlaganidek, tarbiyachi faoliyati muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri tarbiyachi pedagoglarning "shaxsiy sifatleri" hisoblanadi. Uning fikricha qat'iyat, matonat, mehnatsevarlik, hayo, mushohadalik kabi sifatlarning pedagoglar uchun majburiy sifatlar qatorida qayt etilgan. Bunda zukkolik, notiqlik qobiliyati va badiiy tabiatning zarurligi alohida ta'kidlangan. [6,152]

Demak, tarbiyachi bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola undan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, tarbiyachi pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi.

Tarbiyachilik kasbi jamiyatdagi eng mas'uliyatli kasblardan biri bo'lib, qadimgi vaqtlardan unga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, kundan-kunga taraqqiyot sari rivojlanib borayotgan mamlakatimizda o'z kasbining ustasi, yuksak zamonaviy kasbiy bilimlarga ega bo'lgan, mahoratli, davr va jamiyat talablarini nozik va zukko tushuna oladigan, muxtasar qilib aytganda kasbiy jihatdan bilimdon malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talab oshib bormoqda.

Tarbiyachilik kasbi jamiyatdagi eng mas'uliyatli kasblardan biri bo'lib, qadimgi vaqtlardan unga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, kundan-kunga taraqqiyot sari rivojlanib borayotgan mamlakatimizda o'z kasbining ustasi, yuksak zamonaviy kasbiy bilimlarga ega bo'lgan, mahoratli, davr va jamiyat talablarini nozik va zukko tushuna oladigan, muxtasar qilib aytganda kasbiy jihatdan bilimdon malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talab oshib bormoqda.

Kasbiylik sifatlari muammosini tadqiq qilish uchun, eng avvalo , bu voqeylik shaxs sifatlari tizimida qanday o'rin egallashini, qolaversa shaxsning kasbiy ijtimoiy o'zini o'zi anglash qanday rol o'ynashni tushunib olish lozim. Kasbiylik sifatlari muammosini tadqiq qilish uchun, eng avvalo , bu voqeylik shaxs sifatlari tizimida qanday o'rin egallashini, qolaversa shaxsning kasbiy ijtimoiy o'zini o'zi anglash qanday rol o'ynashni tushunib olish lozim. Tarbiyachi o'zi uchun boshqalar bilan bo'ladigan muloqotni yaxlit portretini tuzib olishi kerak. Bu auditoriya bilan bo'ladigan munosabatlarni tashkil qilishiga yordam beradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur [7,184]

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bugungi kunda bo'lajak tarbiyachilarimiz ushbu tamoyillarini puxta o'rganishlari zarur. Tamoyillar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, pedagoglar tomonidan davlat o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlanishi kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish va rivojlantirishini belgilab beradi.

Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish. Bolalik - bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o'ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta'lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko'ra ko'proq o'rganish va o'zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik- bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

- bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega.

- bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

- maktabgacha ta'lim - parvarish, ta'lim va tarbiyadagi uyg'un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida shakllanishini ta'minlaydi; bu ta'lim va tarbiya jarayonida barcha rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligini,shuningdek,ta'lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari hamda har bir rivojlanish sohasi bo'yicha integratsiyani ta'minlash zarurligini belgillaydi.

- bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash.Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish;faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar

- o'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rgánishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlarini tan oladi.

- maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi.Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarining maktabgacha ta'lim tashkiloti ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

- milliy, tarixiy va madaniy an'analar,ma'naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lish, bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'analarini hurmat bilan e'tirof etilganda ularni bilim olishga bo'lgan intilishi va qiziqishi yanada ortadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash-bu jamoaviy ish bo'lib,uni amalga oshirishga maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori mas'uldir.

Ushbu tamoyillar bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilar ta'lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etib, pedagoglarga davlat o'quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta'lim berish va rivojlantirish bo'yicha pedagogik hamda amaliy qarorlar qabul qilishda qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

Tarbiyachilarimiz qanchalik sifatli kadr bo'lib, o'z kasblarini sevib maktabgacha ta'lim tarbiyachilariga ta'lim-tarbiya bersalar shunchalik yoshlarimiz kelajagi porloq bo'ladi. Inson qaysi kasbda faoliyat olib borsa ham o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini tushinish kerak emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan o'z maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli jarayondagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi.

Tarbiyachi faoliyat mahoratini qanday juda ko'p hislatlar va fazilatlar belgilaydi. U avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Bu deganimiz milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni bilishi va ularni yoshlar ongiga yetkazib, tarbiyalanuvchilarda ota-bobolarimiz yaratgan boy merosga hurmatni tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo bo'lajak tarbiyachining o'zi milliy qadriyatlarning mohiyat-mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmati va e'tiqodi bo'lishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash tarbiyalanuvchilarda bobolar, avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini-o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Individual rivojlanish dasturi - pedagogning kasbiy rivojlanishining muhim omili. [8, 420]

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, mamlakatimiz ta'lim tizimining global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayon, talabalarga zamonaviy pedagogik usullar, innovatsion ta'lim texnologiyalari va amaliy tajribalar orqali bilim va ko'nikmalarni kengaytirishga yordam beradi. Xorijiy o'qituvchilar va mutaxassislar jalb etish, o'z tajribalari va bilimlarini mahalliy o'qituvchilar bilan bo'lishish imkoniyatini yaratadi.

Demak, ajdodlarimizni g'oyasini takomillashtirish evaziga hozirgi zamon ta'lim bosqichiga ko'tarish mumkin va bu jarayonlar zamon bilan hamnafas tarzda rivojlanib, taraqqiy etib boraveradi. Bunda bo'lajak tarbiyachilarimiz o'z kasbiy faoliyatini boshlaganida yetarli darajada pedagogik mahoratga bilmasliklarilari, mutaxassislik fanlarini chuqurroq o'rganmasliklari, texnologiyalarni bilmasliklari kasbiy hamda shaxsiy sifatlarni rivojlantirmasliklar juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кушнир А. М. Природосообразность и народная педагогика / А. М. Кушнир // Народное образование. – 1999. – № 1-2. – С. 86
2. Azizxodjayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik T.; TDP. 2006 115-b
3. Ibragimova G.N. "Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari" // Xalq ta'limi-Toshkent, 2018.- № 5.98-103 -b(13.00.00 №2)
4. Аргайл М. Психология счастья-Москва: Прогресс, 1990-с.336
5. Венгер А. Л. Секурман Г. А. Психологическое обследование младших школьников. -М: Изд-во «Влаос-пресс», 2003.
6. Каптерев П.Ф. История русской педагогики. СПб., 2004 152 b
7. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'Latova, M.M. Pirmuhamedova, |R.T. Akbarova I, M.Sh. Nurmatova, N.M. Qayumova, N.N. Jamilova, X. Sariboyev, L.A. Kulay "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent - «ILM ZIYO» - 2011- 184 b.
8. Azam Xoliqov "Pedagogik mahorat" Darslik "Iqtisod Moliya" Toshkent –2011 420 - b